

UO‘K (UDC, УДК): 811.111(73): 821.512.133

## KRISTOFER POL KERTIS VA XUDOYBERDI TO‘XTABOYEV ASARLARIDA “YETIM BOLA” OBRAZI POETIKASI<sup>9</sup>

*Qodirjonova Iqbola Bahodir qizi*  
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
2-bosqich tayanch doktoranti  
Toshkent, O‘zbekiston  
0009-0009-2701-4713  
e-mail: [nizamovaiqbola@yandex.com](mailto:nizamovaiqbola@yandex.com)  
tel.: +998909099339

### ANNOTATSIYA

Kristofer Pol Kertis va Xudoyberdi To‘xtaboyev o‘z asarlarida insoniy his-tuyg‘ular va ijtimoiy adolatsizliklarni ochib berish orqali, yetim bolalarning turmush tarzi, hayoti va jamiyatdagi o‘rni haqida fikr yuritadilar. Ushbu maqola orqali ikki xil millat mualliflarining turli madaniyat va davrlar fonida yetim bolalar qiyofasini aks ettirishda ijtimoiy tengsizliklar qanday ifodalanganligi tahlil qilinadi. Kertisning asarlarida Amerika jamiyatidagi irqiy va sinfiy farqlar yetim bola hayotidagi davr qiyinchiliklari orqali ochib beriladi. Buyuk Depressiya davridagi ijtimoiy tengsizlik keskin qoralanadi. U, asosan, 1930-yillarda Amerika jamiyatidagi iqtisodiy inqiroz davrida, sinfiy tafovutlar va irqiy ajratishlarning yetim bolalar hayotida qanday aks etganini tasvirlaydi. Kertisning qahramonlari, irqiy diskriminatsiya va iqtisodiy qiyinchiliklar bilan yuzma-yuz kelib, omon qolish uchun jamiyatning qattiq va adolatsiz qoidalariga qarshi kurashishga majbur bo‘ladilar. Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlarida yetim bola obrazi orqali Ikkinchi jahon urushi davridagi ijtimoiy tengsizlik va adolatsizlik o‘ziga xos tarzda aks ettirilgan. Aynan urush yillari davomida boy va kambag‘al qatlamlar o‘rtasidagi tafovut yanada keskinlashganini ko‘rsatadi. Urush davrida boylarning o‘z qudratli mavqeyidan foydalanib, kambag‘allarni ezib, zulm o‘tkazishi orqali adolatsizliklar tasvirlanadi. U boylarning o‘z mol-mulklari va kuchlari yordamida kambag‘allarni aldab bor-budidan ham ayirib ekspluatatsiya qilgani, urush paytidagi murakkab sharoitlardan o‘z manfaati uchun foydalangani haqida yozadi. Shu orqali, X. To‘xtaboyev o‘zbek millatining o‘ziga xos ijtimoiy sharoitida sinfiy adolatsizlik va moddiy nochorlikni yetim bola qismatida yoritib beradi. Ikkala adib ham yetimlikni faqat shaxsiy fojea emas, balki jamiyatning kengroq muammolarining ko‘zgusi sifatida tasvirlaydi. Yetim bolalar o‘zlariga qarshi ishlayotgan ijtimoiy tuzilmalar bilan kurashadi, ular orqali mualliflar jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, sinfiy to‘siqlar va adolatsizliklarni ko‘rsatadilar. Shu tariqa, ikki adabiyotda yetim bola obrazi ijtimoiy tanqid vositasiga namoyon bo‘ladi.

### KALIT SO‘ZLAR

Yetim bola obrazi, ijtimoiy tengsizlik, Buyuk Depressiya,, Ikkinchi jahon urushi, kambag‘allik, boylarning zulmi, sinfiy adolatsizlik, iqtisodiy inqiroz, jamiyatda marginallashuv.

Received: October 27,  
2024

Accepted: December 10,  
2024

Available online: March  
1, 2025

<sup>9</sup> For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Qodirjonova I.B. Kristofer Pol Kertis va Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlarida “yetim bola” obrazi poetikasi. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 1. — B. 56-68

## ПОЭТИКА ОБРАЗА “СИРОТЫ” В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ КРИСТОФЕРА ПОЛА КЁРТИСА И ХУДОЙБЕРДИ ТУХТАБОЕВА

*Кадиржонова Икбола Бахадир кизи*

*докторант 2 курса (PhD)*

*Узбекский государственный университет*

*мировых языков*

*Ташкент, Узбекистан*

*0009-0009-2701-4713*

*e-mail: [nizamovaiqbola@yandex.com](mailto:nizamovaiqbola@yandex.com)*

*tel.: +998909099339*

---

### АННОТАЦИЯ

Кристофер Пол Кертис и Худойберди Тухтабоев в своих произведениях исследуют человеческие эмоции и социальную несправедливость, освещая жизнь и общественное положение сирот. В этой статье анализируется, как писатели-представители двух разных наций через образы сирот показывают социальное неравенство на фоне различных культурных и исторических условий. В произведениях Кертиса расовые и классовые различия в американском обществе раскрываются через трудности, с которыми сталкиваются сироты. Жесткой критике подвергается социальная несправедливость периода Великой депрессии. В основном писатель показывает, как классовые различия и расовая сегрегация отражаются на жизни сирот в 1930-е гг., в период экономического кризиса в американском обществе. Персонажи Кертиса сталкиваются с расовой дискриминацией и экономическими трудностями, они вынуждены бороться с жестокими и несправедливыми законами общества ради выживания.

В произведениях Худойберди Тухтабоева образ сироты отражает социальную несправедливость во время Второй мировой войны. Писатель показывает, как в военные годы разрыв между богатыми и бедными стал еще более явным. Несправедливость проявляется при использовании богатыми своей власти для угнетения бедных. Тухтабоев пишет о том, как богатые обманывали или эксплуатировали бедных, используя в своих интересах сложные условия военного времени. Он освещает классовую несправедливость и материальную нужду в уникальных социальных условиях узбекского народа. При этом оба автора изображают сиротство не только как личную трагедию, но и как отражение более широких социальных проблем. Сироты борются с социальными порядками, направленными против них, и через этот конфликт писатели демонстрируют социальное неравенство, классовые барьеры и общественную несправедливость. Таким образом, как в американской, так и в узбекской литературе образ сироты служит средством социальной критики.

---

### КЛЮЧЕВЫЕ

### СЛОВА

Образ сироты, социальное неравенство, Великая депрессия, Вторая мировая война, бедность, угнетение богатыми, классовая несправедливость, экономический кризис, маргинализация в обществе.

**THE POETICS OF THE “ORPHAN CHILD” IMAGE IN THE  
WORKS OF CHRISTOPHER PAUL CURTIS AND KHUDOYBERDI  
TUKHTABOYEV**

*Kodirjonova Ikbola Bahodir kizi*

*2-year Phd Student,*

*Uzbekistan State World*

*Languages University*

*Tashkent, Uzbekistan*

*0009-0009-2701-4713*

*e-mail: [nizamovaiqbola@yandex.com](mailto:nizamovaiqbola@yandex.com)*

*tel.: +998909099339*

---

**ABSTRACT**

In their literary works, Christopher Paul Curtis and Khudoyberdi Tuxtaboyev delve into the complexities of human emotions and address social injustices, bringing attention to the experiences and societal expectations of orphaned children. This article examines the manifestation of social inequality through the depiction of orphaned characters by authors from two distinct nations within diverse cultural and historical contexts. The works of Curtis expose the racial and class disparities present in American society by depicting the struggles of orphaned children. The social inequalities of the Great Depression are subject to sharp criticism. The characters are faced with racial discrimination and economic hardships, which compel them to struggle against the harsh and unjust rules of society in order to survive. In contrast, Khudoyberdi Tuxtaboyev's depiction of orphaned children serves as a commentary on the societal injustices of World War II. The economic disparities between the affluent and the impoverished were exacerbated during the war, as the influential took advantage of and subjugated the less privileged. Kh.Tuxtaboyev discusses the ways in which the affluent utilized their resources and influence to manipulate or exploit the impoverished, capitalizing on the intricate circumstances of war. He provides insight into the issues of socioeconomic disparity and material deprivation within the unique societal context of Uzbekistan. The authors portray orphanhood not only as a personal tragedy, but also as a manifestation of larger societal issues. The authors use the struggles of orphaned children to illustrate social inequalities, class barriers, and injustices in society, as these children face challenges posed by societal structures that work against them. Thus, in both literatures, the image of the orphan serves as a vehicle for social criticism.

---

**KEY WORDS**

Image of the orphan, social inequality, Great Depression, World War II, poverty, oppression by the wealthy, class injustice, economic crisis, marginalization in society.

## KIRISH

Bolalar va o‘smirlar adabiyotiga hech qachon boshqa adabiyot turlaridan ajralgan holda qaramaslik kerak. “Yuksak” adabiyot va san’ati namunlari bilan bir qatorda falsafiy, ilmiy va badiiy ijod bilan bog‘liq holda bolalar va o‘smirlar adabiyoti ham ma’lum bir jamiyatning ijtimoiy holati va madaniy qadriyatlarini aks ettiradi. Demak, unda ma’lum bir tarixiy davrni tavsiflovchi mafkura, xurofot va stereotiplar ham o‘z aksini topgan. (Becker J., 1973, 88)

Yoxannesburg universiteti o‘qituvchilari Zilibele Mtumane va Maishiko Dorin Mojapelo o‘zining tadqiqotlarida bolalar adabiyoti bolalar boshidan kechirayotgan ko‘plab ijtimoiy muammolarni hal qilishga yordam berishini ta’kidlaydi va misollar orqali isbotlab beradi. (Zilibele M., Mojapelo M., 2022, 449-459) Demak, bolalar adabiyotida ijtimoiy va tarixiy davr tasviri nafaqat bolalarni davr voqeliklari, ijtimoiy munosabatlar haqida xabardor qiladi, balki bu muammolarni qanday yengib o‘tishga ham o‘rgatadi. Shuning uchun ham Amerika va o‘zbek bolalar adabiyotidagi ijtimoiy tengsizlik muammosi tasviri dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahon adabiyotida yetim bola obrazi ijtimoiy tengsizlikni ko‘rsa oluvchi kuchli vosita bo‘lib xizmat qiladi. Chunki yetimlar – bu bolalar, ular beg‘ubor va begunoh. Shu sabab ham ushbu obraz o‘quvchilarda chuqur hamdardlikni va empatiyani uyg‘ota oladi, asarning ta’sirlilik darajasini oshiradi. Yetim bolalarning yolg‘izligi jamiyat me’yorlari va tartiblariga qarama-qarshi va bu muallifga ijtimoiy tuzilmalarning barcha uchun ham teng emasligini yaqqol ko‘rsata olish imkonini beradi. O‘ziga xos qahramonlar – yetim bolalarning jasur, qo‘rqmas, kurashuvchan, o‘ziga ishongan, dovyurak bolalar sifatida tasvirlanishi kitobxonlarga umid baxsh etib, ijtimoiy adolatsizliklarni yengish imkoni borligini ko‘rsatib beradi. Jumladan, adabiyotda yetim qahramonlar ijtimoiy tengsizlikni ochib berish uchun samarali vosita bo‘lib, mualliflarga murakkab ijtimoiy mavzular haqida fikr yuritishga, o‘quvchilarni hissiy jalb etishga va ijtimoiy tuzilmalar haqida tanqidiy mulohaza yuritishga imkon beradi. Zero, bejizga adabiyotga *“muayyan davr ma’naviy hayotining ko‘zgusi, unda milliy an’analar millat hayoti, zamonaviy ijtimoiy*

*taraqqiyot doirasida har bir ijodkorning individual salohiyati va dunyoqarashi, g'oyasiga binoan aks etadi*" (To'rayeva B., Kuchimov U., 2022, 56) deya ta'rif berilmagan.

Yetimlar o'z-o'zidan mustaqil, ammo himoyasiz xarakterlar sifatida, bolalar uchun yozilgan ko'plab asarlarda muhim mavzu bo'lib kelgan. Masalan, J.K. Rowlingning Garri Potter seriyasidagi asosiy qahramon - Garrining yetim bo'lishi uning hikoyasining muhim jihatlaridan biridir. Uning sarguzashtlari ota-onasining o'limidan so'ng kelib chiqadi va unga katta mas'uliyat yuklaydi. Tarixiy kontekstlarda, klassik bolalar adabiyotida ham yetim qahramonlar ko'p uchraydi. Masalan, *"Little Goody Two-Shoes"*, *"The Secret Garden"*, *"Anne of Green Gables"*, *"Tom Sawyer va Ballet Shoes"* (*"Ikki poyabzalli yaxshi qizaloq"*, *"Sirli bog"*), *"Yashil tomli uyning Annasi"*, *"Tom Soyer va balet poyabzallari"*) asarlaridagi qahramonlar ham yetim bolalardir. Ularning ham hikoyalari ota-onalaridan mahrum bo'lishi bilan boshlanadi va bu ularni dunyoni kashf etishga yo'l ochadi. Yetim Enni, o'zining mehribonligi va sabr-bardoshi bilan, yovuz dunyoda ham o'zining go'zal fazilatlarini saqlab qola oladi. Kitoblarda yetim bola obrazi bolalar adabiyotining asosiy tamoyillari kesishmasida turadi. (Mabey C., 2022) Yetim qahramonlar odatiy jamiyat me'yorlaridan ajralgan holda, yangi imkoniyatlar va xavflar bilan to'la bir dunyo bilan yuzma-yuz kelishadi. O'zlarining beg'uborligi orqali, bu qahramonlar atrofidagi insonlar ya'ni turli jamiyat vakillarining xarakterlarini ko'rsatib bera oladilar, shuningdek, o'quvchilarga ijtimoiy adolatsizliklar haqida jiddiy o'ylash imkonini beradi. Bolalar adabiyotida yetimlar oila va ota-onalardan mahrum bo'lganliklariga qaramay, hayotda o'z o'rnini, baxtni topishga muvaffaq bo'lishadi. Masalan, Charlz Dikkensning *"Oliver Twist"* romanidagi Oliver, qiyinchiliklarga qaramay, beg'uborligi, yaxshilikka bo'lgan ishonchini saqlab qoladi. Uning samimiyligi va yaxshi niyati odamlarning mehrini qozonadi va hayotini ijobiy tomonga o'zgarishiga sabab bo'ladi. Sharlotta Bronte tomonidan yaratilgan mashhur qahramon Jeyn Eyr ham o'z oilasidan mahrum bo'lib, qiyinchiliklariga qarshi yolg'iz kurashadi. Yetimxonada yashab o'z kuchi bilan o'zini himoya qiladi. Dikkensning asarlarida ham yetim qahramonlar muhim

rol o'ynaydi. Oliver Tvist, Pip, Martin Chezlvit va Devid Kopperfild kabi qahramonlar orqali Dikkens ijtimoiy muammolarni, qashshoqlik va adolatsizlikni yoritadi. Yetim qahramonlar ko'pincha qiyinchiliklar bilan kurashishga majbur bo'lishadi, bu esa ularning hikoyalarini ta'sirchan qilib va tanqidiy qarashga undaydi. Umuman olganda, jahon adabiyotida yetim qahramonlar jamiyatning ijtimoiy adolatsizliklarini ko'rsatishda ko'zgu bo'lib xizmat qiladi. Ularning hayotiy kurashlari va umidlari, o'quvchilarga haqiqiy hayotdagi muammolarni yoritish imkonini beradi va adabiyot orqali ijtimoiy o'zgarishlar uchun da'vat qiladi, birlashishga undaydi. Biz tahlilga tortgan bolalar yozuvchilar – Kristofer Pol Kertis va Xudoyberdi To'xtaboyev ham o'z asarlari orqali ijtimoiy muammolarni bolalik tajribasi obyektivi orqali nazar tashlash imkonini beradi.

### ASOSIY QISM

Kristifer Pol Kertisning asarlaridagi eng muhim elementlardan biri yetim bola obrazidir, bu esa ijtimoiy tengsizlik mavzularini o'rganish uchun kuchli vosita sifatida xizmat qiladi. *“Bud, Not Buddy”* (*Bad, oshna emas*) va *“Mighty Miss Melone”* (*Kuchli xonim Meloun*) kabi romanlarda Kertis yetim obrazini ijtimoiy jamoa vakillari o'rtasidagi tengsizlik, ayniqsa, irqiy va iqtisodiy holat kontekstida yoritib beradi. *“Bud, Not Buddy”* romanidagi bosh qahramon Bud Kaldvell — Buyuk Depressiya davrida afro-amerikalik bolalarga ta'sir etuvchi tizimli to'siqlarni ochib beradi. Budning sayohati kattalar dunyosiga kirib borish, o'zini kashf qilish va qabul qilish yo'lidagi izlanishi bilan birga, qashshoqlik va irqiy kamsitish kabi kengroq ijtimoiy muammolarni ham aks ettiradi. Budning otasini topish uchun kurashi va qiyinchiliklarga qaramay, o'ziga ishonchi va qat'iyati ijtimoiy adolatsizliklarni yengib o'tishdagi shaxslarning kuchini aks ettiradi. Kertis ko'pincha hayotning qiyin lahzalarida onasi bilan o'tgan yoqimli xotiralarini yoki suhbatlarini eslaydi, bu esa tengsizlik sharoitida ham inson ruhini tetiklashtiradi qozonishini ko'rsatadi. Kertis Bud kabi yetimlarning tajribalarini ko'rsatish orqali bolalar uchun yetarli qo'llab-quvvatlashni ta'minlay olmaydigan ijtimoiy tuzilmalar muvaffaqiyatsizligini ochib beradi. Budning asar davomidagi turli xarakterlar bilan

o‘zaro aloqasi orqali Kertis yetimlar va, shu orqali, marginalizatsiya<sup>10</sup> qilingan jamoalar muammolarini kuchaytiruvchi stereotiplar va kamsitishlarni ochiq ko‘rsatadi. Bu tanqid, o‘quvchilarni ijtimoiy tengsizlikni keltirib chiqaruvchi tizimli muammolarni tan olish va ularga qarshi kurashishga undaydi. Masalan ushbu asarda Sugning Did ga munosabatida ko‘rish mumkin: *“I’d be offended, man, and I ain’t trying to say that you ain’t good on the eighty-eights, but you know the only reason you got this gig is ‘cause you’re Dutch, you’re white and you don’t have the strongest personality in the world”*- *“Xafa bo‘lardim, aka, pianinoda yomon chalasan demoqchi emasman, lekin o‘zing bilasan-ku, bu ishni olganingning yagona sababi - sen gollandsan, oq tanlisan va dunyodagi eng kuchli shaxsiyatga ega emassan.”* (Curtis Ch.P., 1999, 126) *“Men ranjigan bo‘lardim, do‘stim, bu bilan men sening sakson sakkizlarda (ushbu jargon orqali pianino nazarda tutilmoqda, uning 88ta klavishi bor) yaxshi o‘ynashingga Shubha qilayotganim yo‘q, lekin bilasanmi, sen bu ishni faqatgina golland bo‘lganing, oq tanli bo‘lganing va dunyodagi eng kuchli xarakterga ega bo‘lmaganing uchun olding”*. Bu gaplardan shuni anglash mumkin-ki, Dirti Did pianinoda yaxshi o‘ynashiga qaramay, o‘z o‘rnini asosan irqiy kelib chiqishi (Ya‘ni oq tanli va golland bo‘lgani) hamda kuchli va dadil shaxsiyatga ega emasligi sabab egallagan, Dirti Did oq tanli va ayniqsa golland bo‘lgani uchun u o‘z davrining eng mashhur musiqiy bandalarining birida osongina ish topa olgan, uning bo‘ysunuvchan xarakteri sabab G.Kalloueyga ham qo‘l kelgan. Chunki Amerikada o‘sha vaqtda qonunlar qora tanli odamlarning mulkka egalik qilishiga yo‘l qo‘ymagan, Didni esa boshqarish oson bo‘lganligi uchun German o‘z mulkini uning nomiga o‘tkazgan. Bundan tashqari qora tanlilarni irqiy kamsitish jamiyat hayotiga singib ketgan, xatto oq tanlilar qora tanlilarni tadbirlarda musiqa ijro etishga ham chaqirishmasdi. Shuning uchun kelishuv

---

<sup>10</sup> Izoh: Marginallashuv (lotincha "marginalis" - chetda joylashgan so‘zidan) - sotsiologik hodisa bo‘lib, insonning ma‘lum ijtimoiy guruhlar orasidagi "oraliq" yoki "chegaradosh" holatini ifodalovchi tushunchadir. Bu holat uning ruhiyatiga o‘ziga xos ta‘sir ko‘rsatadi. Ushbu atama 1920-yillarda Amerika sotsiologiyasida paydo bo‘lib, muhojirlarning yangi ijtimoiy sharoitlarga moslasha olmaslik vaziyatini ta‘riflash uchun qo‘llanila boshlagan.

bitimlari Did bilan tuzilar, ishga yonlovchilar musiqiy guruhning qora tanlilardan iborat ekanligi bilmay qolishardi.

“Mighty Miss Melone” asarida ham *Buyuk Depressiya* davrida jamiyatdagi irqiy tengsizliklarning, bolalar ruhiyatiga ta’sirini, xususan yosh, sabrli va iqtidorli afroamerikalik qizcha -Deza Melounning hayoti orqali tasvirlaydi. Hikoya Indiana shtatining Gari shahrida boshlangan, Buyuk Depressiya davrida iqtisodiy inqiroz tufayli kuchaygan ishsizlik Dezaning otasini chetlab o’tmaydi. Chunki aynan qora tanlilar uchun ish imkoniyatlari juda cheklangan edi. Deza hali o’n ikki yoshda bo’lsa-da jamiyatdagi qora tanlilarga nisbatan adolatsizlikni to’liq his qiladi: Deza o’qishni yaxshi ko’radi va juda tirishqoqlik bilan o’qiydi. Ammo Flint shahriga ko’chib o’tgach iste’dodi va mehnatiga qaramay, oq tanli sinfdoshlari bilan solishtirganda pastroq baholar oladi. Ammo sinfdoshlari maktabda qora tanlilarga nisbatan adolatsizlikni allaqachon payqagan, Dezaning aqlli qiz ekanligini bilib olishgandi:

*“All these teachers up here at Whittier’s prejudice. Katherine Williams was the smartest colored girl in the school and all she use to get was a C. You must be a genius to get a C plus!”.* (Bu yerdagi Uittier o’qituvchilarining hammasi nohaq. Ketrin Uilyams maktabdagi eng aqlli qora tanli qiz edi, lekin u doimo faqat “C” baho olardi. “C+” olish uchun daho bo’lishingiz kerak edi!)

Deza dugonasining gaplariga kuladi, ammo vaziyatni shu onda tushunib yetadi. Chunki u inshoni juda e’tibor bilan, bexato yozishga bor imkoniyati bilan harakat qilgandi, o’qituvchisi janob Smit ham unga varag’ini topshirar ekan juda yaxshi yozgani uchun maqtaydi. Qog’ozda ham “Barakalla?” deb yozilgan, ammo kattagina C + qo’yilgan edi. Deza juda hayratlanadi adashdimmi deb varaqni o’girib qayta qaraydi, lekin u chindan ham A emas C+ olgan edi. Bu safar Deza yig’lab yubormaydi, chunki u endi hammasini tushungan va ancha irodali qizga aylangan edi. Qora tanlilar nafaqat maktabda balki jamiyatning turli qatlamlarida, turli vaziyatlarda turlicha haqsizliklarga uchrashar edi. Dezaning otasi Roskoning hikoyasida ham buni anglash qiyin emas:



“Great. Here’s why this is more than just a fight. Sad to say, the boxing ring is one of the few places in America where your skin color doesn’t play a huge role. When you’ve got two men going against each other wearing a pair of ridiculous puffy mittens, most of the time, it’s a reasonably fair fight... “Steel Lung used to say it was the only place where a black man could hit a white man and not get lynched for it.” “Ajoyib. Mana nima uchun bu shunchaki oddiy jangdan ko‘proq narsa. Afsuslanarlisi shuki, boks ringi Amerikada teri rangi katta ahamiyatga ega bo‘lmagan kamdan-kam joylardan biridir. Ikki kishi qo‘llarida kulgili darajada shishgan qo‘lqoplar kiyib, bir-biriga qarshi kurashayotganda, ko‘pincha bu nisbatan adolatli jang bo‘ladi... Stil Lang (bu yerda laqab: Steel Lung-Po‘lat O‘pka) boks qora tanli odamning oq tanlini urishi va bu uchun qatl qilinmasligi mumkin bo‘lgan yagona joy deb aytardi.” Asardan parcha irqiy tengsizlik va boksning Amerika jamiyatidagi o‘ziga xos o‘rnini tasvirlaydi. Po‘lat O‘pka laqabli qahramonning ta’riflashicha, boks qora tanli odamlarning o‘zini ifoda etish imkonini beradigan va jismoniy ustunligini ko‘rsata oladigan sanoqli joylardan biri. Bu shunchaki o‘yin emas, balki, jamiyatda turli jabhalarda tenglikdan mahrum bo‘lgan qora tanlilarning o‘ziga xos “o‘ch olish” ya’ni tengsizlik sabab qalbida qaynayotgan alamlarini namoyon qila oluvchi joydir. Boks adolat yashab qola olgan, irqiy hurofotdan holi bo‘lgan kam sonli musobaqalardan biri. Deza otasining so‘zlaridan shuni anglaydiki, boks, ular uchun faqatgina musobaqa emas, balki irqiy tengsizlik va jamiyatdagi adolatsizliklarga qarshi kurashning bir shakli hisoblanadi.

Xudoyberdi To‘xtaboyevning ham “Jannati odamlar”, “Besh bolali yigitcha”, “Mungli ko‘zlar” asarlarining bosh qahramonlari yetim bolalar bo‘lib, ularning hayotlari haqida hikoya qilish davomida jamiyatdagi adolatsizlik, boy va kambag‘allar orasidagi ziddiyatlar, ijtimoiy hayotning og‘ir ahvoli tasvirlanadi. Uning asarlarida tasvirlangan davr – “XX asr faqat o‘zbek xalqi hayotida emas, balki butun dunyo hayotida ham alg‘ov-dalg‘ovlarga boyligi bilan ajralib turadigan davr bo‘ldi. Hayot jarayonlari tezligi haddan ziyod ortdi... XX asrga kelib adabiyot hayotga yaqinlashdi. Bu iblan kifoyalanib qolmay, hayotni o‘zgartirishga uruna boshladi” (Rajabov F., Roziqova H., Norov O., 2024, 30). Ushbu jarayonning

bolalar adabiyotiga kirib kelishiga katta hissa qo‘shgan adibimiz Xudoyberdi To‘xtaboyev ham buning uddasidan chiqdi. Muallifning ijodiy rejasiga, qolaversa, xronologiya mantiqi taqazosiga ko‘ra avval “Jannati odamlar”, so‘ng “Besh bolali yigitcha” yozilishi lozim edi. Biroq 70-yillar sharoitida 1932-yili tavallud topgan bo‘lg‘usi adib endigina ko‘z ochib ko‘rgan kolxozlashtirish, mulkdorlarni sinf sifatida tugatish, didsor ulamolar, ijodkor ziyolilarni ta‘qib ostiga olish, mafkuraviy-siyosiy dag‘dag‘a, qatag‘onlar avjiga chiqqan zamon haqida bor haqiqatni aytish, bitish iloji yo‘q edi. (Normatov U., 2012, 50)

Uning “Mungli ko‘zlar” asarida zamona talotumlari, mansabdor shaxslarning mansabini suv iste‘mol qilib oddiy xalqni qo‘g‘irchoq qilishi, korrupsiya balosining ayanchli oqibatlari, boylar va kambag‘allar orasidagi tafovut va kamsitishlar yetim bolalar taqdiri zamirida ochib beriladi. Masalan ushbu parchada boylar kambag‘allar ustidan istagancha hukm chiqarib, adolatsiz korrupsiya botqog‘iga botganlarimi ko‘rsatadi: *“O‘sha kechasi Ataullo Muallim teskari to‘nini yechmaydi. Dadamning ustidan ming xil tuhmatni to‘qib yuqori tashkilotga shikoyat yozadi. Xayriyat, tekshiruvda tasdiqlanmaydi. Uchinchi bor yozganda, dadamning militsiyada o‘rtoqlari ko‘p emasmi, o‘shalardan bittasini ishga solib muallifni tuhmatchi sifatida bir yarim yilga qamatib yuboradi...:”* (To‘xtaboyev X., 2021, 87) Ushbu parchada vaziyatga bolalarcha ta‘rif bergan Zafar aslida otasi o‘z boyligi va mansabidan foydalanib, halol pul topib oddiy muallimlik qilib, yog‘ochdan gultuvak yasab kun ko‘radigan qo‘shnisining ustidan kulib “kambag‘alni urma, so‘kma, kiymini yechib ol” qabilida ish ko‘rib, suv qaynatadigan qozonni asl bahosidan ikki baravar qimmatga sotadi. Saidjon nafaqat qo‘shnisiga qalloblik qiladi, balki tuhmat qilib qamatib ham yuboradi.

“Besh bolali yigitcha” asarida ham shu kabi holat tasvirini uchratish mumkin. *“Parpi buvam qarzini uza olmagach, ichkari hovlisini, maydon-u o‘rikzorlargacha go‘shib Meli boggolga berib yuboribdi. Boqqolning bir ko‘zi yaxshi ko‘rmaydi deb, armiyadan gochib yurgan katta o‘g‘li Jamolpoilsod bobomning uylariga ko‘chib kirib olibdi* (To‘xtaboyev X., 2021, 240). Parchada ismi zikr etilgan Meli baqqol aslida Parpi buvaga o‘n ming qarz beradi, ammo shu o‘n mingdan ham uch yuz so‘m

kam berib, yana ikki yarim barobar qilib undirib olishga kelishadi. Urushdagilarga madad bo‘lsin deb bor yiqqan terganlari va qarzni ham qo‘shib zambarak sotib olgan buva baqqolning ayyorligi deb uysiz ham qoladi. Baqqol nafaqat kambag‘allarni bor yo‘g‘idan ayiradi balki hukumatga ham tilyog‘lamalik qilib o‘g‘lini armiyadan olib qoladi. Ushbu parcha o‘sha davrdagi ijtimoiy tengsizlikning juda oddiy bir ko‘rinishini tasvirlab bera oladi. Chunki yozuvchi “Jannati odamlar” romanida ham ijtimoiy masalalar chetlab o‘tilmaganini sezish mumkin: *“Ha, asalim, otang bebeho odam edi..otangning otasi katta boy bo‘lgan, machitlar solib, yo‘lga yer ajratib, sahiy boy degan nom chiqargan ekan...Keyin kolxoz zamoni bo‘ldi, yer-suvlarimizni, uy-joylarimizni, ko‘rpa-to‘shaklarimizni, qozon-tovoqlarimizni – hammasini olib, o‘zimizni uzoq mamlakatga quloq qilishuvdi, otang rahmatli, e, uyoqlarga bormaymiz, deb meni olib qochib ketdi...Tog‘ toshlarda qochib yurdik, axiyri melisalar otangni ushlab, qamab yo‘yishdi. Qamoqxonada ko‘p kaltaklashgan ekan, jigari ezilib, qon tufurib, olamdan o‘tdi.”* (To‘xtaboyev X., 1995, 70-72) Ushbu parchada Ota-onaning hayoti va taqdiridagi o‘zgarishlar orqali o‘zbek jamiyatidagi ijtimoiy qatlamlar va tengsizliklarni aks ettiradi. Otaning boyligi va obro‘si, eski zamonlarda erkinlik va imkoniyatlarga ega bo‘lgan inson sifatida tasvirlanadi. Biroq, kolxoz zamonining boshlanishi bilan ularning mulki, erkinligi va ijtimoiy maqomi jiddiy ravishda tahdid ostiga olinadi. Otaning qamoqqa olinishi va kaltaklanishi, ijtimoiy adolatsizlikni va hukumat tomonidan kamsitishni ko‘rsatadi. Bu, o‘z navbatida, kuchli insonlar ham ijtimoiy tizimning qurboniga aylanishi mumkinligini anglatadi. Ota-onaning azoblari va oxir-oqibatda otaning o‘limi, oila va insoniyat uchun og‘irligini ta’kidlaydi. Bu voqealar orqali o‘zaro munosabatlar va mehr-muhabbat hamda ijtimoiy muammolarning qanday ta’sir qilishi aks ettiriladi. Umuman olganda, bu parcha ijtimoiy tengsizlik, qamoq va repressiya, shuningdek taqdir kechinmalari va oilaviy munosabatlarni qamrab olgan murakkab masalalarni yoritadi.

### **XULOSA**

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yetim bolalar obrazlari orqali Kertis va To‘xtaboyev asarlarida ijtimoiy tengsizlik, irqiy kamsitish va iqtisodiy

muammolar o‘z aksini topadi. Bu obrazlar, o‘z qiyinchiliklari bilan birga, umuman ijtimoiy adolatsizliklar to‘g‘risida kengroq fikr yuritishga yordam beradi. Bud va Orifjon obrazlari orqali, ijtimoiy adolatsizliklarga qarshi kurashdagi shaxsiy qobiliyat va qat’iyat ko‘rsatilgan. Bu, o‘quvchilarga ijtimoiy muammolarga qarshi kurashishning ahamiyatini ta’kidlaydi. Asarlarda keltirilgan stereotiplar, kamsitishlar, ijtimoiy munosabatlar va ularning hayotdagi real ta’sirlarini ochib beradi. Bu, o‘quvchilarning ijtimoiy haqiqatni yaxshiroq tushunishiga yordam beradi. Xarakterlar o‘rtasidagi aloqalar va ularning tajribalari, ijtimoiy hayotdagi murakkab muammolarni yoritishga imkon beradi, bu esa o‘quvchilarga o‘zaro hamjihatlik va yordamning ahamiyatini ko‘rsatadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Becker J. Racism in Children’s and Young People’s Literature in the Western World. *Journal of Peace Research*, vol. 10, no. 3, 1973, pp. 295–303. *JSTOR*, <http://www.jstor.org/stable/422781>. Accessed 25 Oct. 2024.
2. Curtis Ch.P. Bud, not Buddy. – New York: Delacorte Press.-1999 p.126
3. Mabey C. *On orphans in children’s books*. Gecko Press, 2022, August 19. <https://geckopress.com/on-orphans-in-childrens-books/>
4. Normatov U. Sarguzasht sardori. T.:Adib, 2012, B-50
5. Rajabov F., Roziqova H.,Norov O. Ma’rifat tarix va adabiyotda Belarus “International Science research conference”, 2024, B-30.
6. To‘rayeva B., Kuchimov U. “Adabiyotshunoslik” T: Malik Print Co., 2022, B.-56
7. To‘xtaboyev X. Besh bolali yigitcha. T.:Yangi asr avlodi, 2021. B-240
8. To‘xtaboyev X. Jannati odamlar. T.:Cho‘lpn. 1995, B- 70-72
9. To‘xtaboyev X. Mungli ko‘zlar.T.:Yangi asr avlodi. B-87
10. Zilibele M.& Maishiko D.M. Social issues faced by children which can be solved through children’s literature: From a bibliotherapy perspective. *International Journal of Research in Business and Social Science*, 2022.-P: 2147- 4478. 11. 449-459. 10.20525/ijrbs.v11i5.1872.

**REFERENCES**

1. Becker, J. (1973). *Racism in children's and young people's literature in the Western world*. *Journal of Peace Research*, 10(3), 295–303. <http://www.jstor.org/stable/422781>. Accessed October 25, 2024.
2. Curtis, C. P. (1999). *Bud, not Buddy* (p. 126). Delacorte Press.
3. Mabey, C. (2022). *On orphans in children's books*. Gecko Press. <https://geckopress.com/on-orphans-in-childrens-books/>
4. Normatov, U. (2012). *Sarguzasht sardori*. Toshkent: Adib.
5. Rajabov, F., Roziqova, H., & Norov, O. (2024). *Ma'rifat tarix va adabiyotda*. Belarus: International Science Research Conference.
6. To'rayeva, B., & Kuchimov, U. (2022). *Adabiyotshunoslik*. Toshkent: Malik Print Co.
7. To'xtaboyev, X. (2021). *Besh bolali yigitcha*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
8. To'xtaboyev, X. (1995). *Jannati odamlar*. Toshkent: Cho'lpon.
9. To'xtaboyev, X. (2021). *Mungli ko'zlar*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
10. Zilibele, M., & Maishiko, D. M. (2022). Social issues faced by children which can be solved through children's literature: From a bibliotherapy perspective. *International Journal of Research in Business and Social Science*, 11(5), 449–459. <https://doi.org/10.20525/ijrbs.v11i5.1872>